UO‘K. 371.38

O‘QUVCHILARNI RAG‘BATLANTIRISH ORQALI TARBIYALASH VA INTELLEKTUAL SALOHIYATLARINI OSHIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA TAHLILI

D.X. Ahmedova

Maqolada ta’lim-tarbiya jarayonida rag‘batlantirish va jazolash metodlarining ahamiyati, etimologiyasi va mazkur muammo bilan shug‘ullangan pedagog olimlarning fikr va xulosalari tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida interaktiv rag‘batlantirish metodlaridan foydalanishning amaldagi holatini aniqlash maqsadida bir qancha hududlarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan olingan anketa va so‘rovnomalar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *mukofot, jazo, rag‘batlantirish, tarbiya, ta’lim, motiv, metod, interaktiv metod, texnologiya, intellekt.*

В статье проанализированы значение и этимология методов поощрения и наказания в образовательном процессе, а также мнения педагогов, занимающихся данной проблемой. Также с целью определения текущей ситуации с использованием интерактивных методов стимулирования в начальных классах общеобразовательных школ на сегодняшний день приведены аналитические данные по анкетам и опросам, полученные от учителей начальных классов ряда регионов.

Ключевые слова: *вознаграждение, наказание, поощрение, воспитание, образование, мотив, метод, интерактивный метод, технология, интеллект.*

Kirish

Yangi O‘zbekistonda zamonaviy talablar asosida ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish umumta’lim maktablari pedagog xodimlarining eng birinchi o‘rindagi vazifasiga aylanib ulgurgani barchaga ma’lum. O‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan motivatsiyaning qay darajada kuchli bo‘lishi ta’limning to‘g‘ri tashkil etilishi, darslarning yetuk mutaxassis kadrlar tomonidan o‘tilishi, o‘quv sharoitining mukammal bo‘lishi bilan bir qatorda o‘quvchilarning har bir yutuqlarini qay tarzda rag‘batlantirib borilishiga ham bevosita bog‘liqdir.

Ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh qilish, undagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan ijobiy va samarali islohotlar yo‘lga qo‘yilishi natijasida o‘z sohasining malakali yetuk kadrlari yetishib chiqishiga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni [1]ning qabul qilinishi yurtimizda o‘qituvchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishni takomillashtirish, ularda ish-faoliyatini mukammal darajada amalga oshirishi uchun ichki motivatsiyaning kuchayishi va o‘z ustida ishlash uchun imkoniyatning kengayishiga sabab bo‘ldi.

2019-yil 30-sentabrda Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 823-son qarori [2] o‘qituvchilarni moddiy jihatdan o‘zini xotirjam his qilishiga va asosiy e’tiborini yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash maqsadiga qaratishi uchun zamin yaratdi.

O‘quvchilarni interaktiv usulda rag‘batlantirish va bu orqali ularni tarbiyalash hamda intellektual salohiyatlarini yuksaltirish maqsadida ilmiy tadqiqot olib borish uchun bir qancha maqsad va vazifalar belgilab olindi.

Tadqiqotning maqsadi: O‘quvchilarni interfaol usulda rag‘batlantirish orqali tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish yordamida ijtimoiy pedagogik omillarni yoritish va o‘quvchilarning kognitiv bilish faoliyatlarini oshirishdan iborat.

Tadqiqot obyekti: Umumta’lim maktabi o‘quvchilarini interfaol usulda rag‘batlantirish orqali tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini rivojlantish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Umumta’lim maktabi o‘quvchilarini interfaol usulda rag‘batlantirish orqali tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatini rivojlantishning mazmuni, shakli, metod va vositalari.

Tadqiqotning vazifalari:

- pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlar, asosiy tushunchalar, tamoyillar va usullarni tahlil qilish;

- ta'lim tizimida interaktiv usulda rag'batlantirish vositasida tarbiyalash va intellektni oshirishning ta'limiy mazmuni komponentlarini aniqlash;

- ta'lim tizimida interaktiv usulda rag'batlantirish orqali tarbiyalash va intellektini oshirishning o'quv-metodik ta'minotini yaratish.

Material va usullar

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, sotsiologik metodlar (anketa, savol-javob, suhbat, ekspert baholash) pedagogik tajriba-sinov, statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

Har qanday yosh davrida rag'batlantirish juda muhim didaktik vosita sanaladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida rag'batga bo'lgan ishtiyoq boshqa yoshdagi o'quvchilarga nisbatan kuchli hisoblanadi. Pedagogika tarixiga nazar solsak, barcha tajribalar, o'ziga xos asarlar ta'lim-tarbiya mazmuni va metodlarini to'gri qo'llashni, hodisalarga davr talabi asosida yondashishni o'rgatadi. Shu sababli tadqiqot yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan qator olimlarning pedagogik tajribalari o'rganib chiqildi.

Mukofot va jazo pedagogika tarixida juda keng tarqalgan ta'lim usullaridan biri hisoblanib, ular ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishga yordam beradi, shaxsning ma'naviy qadriyatlarini, mas'uliyatini va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydi. Barcha pedagogik ta'sirlarning samarasi mukofot va jazolarning uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq bo'lib, bu tarbiyachi-o'qituvchilardan pedagogik mahorat talab etadi.

Pedagog olimlardan K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, L.Yu.Gordin, A.E.Shcheglova, N.I.Pirogov, A.Sh.Amonashvili va boshqalar o'zlarining pedagogikaga oid asarlarida mazkur mavzu yuzasidan qator fikrlar bildirishgan.

Tahlillarga asoslanib ta'lim jarayonida ta'lim usullari sifatida mukofot va jazolarning mohiyati va ulardan maqsadga muvofiq holda foydalanish to'g'risida metodist olimlarda turlicha fikrlar mavjud bo'lgan. Muammoni o'rganish davomida mushtarak fikrlarni solishtirish uchun tahlil qilingan pedagogik kategoriyalarning mohiyatini o'rganishga murojaat qilindi.

Aslida pedagogikaning butun tarixi mukofot va jazolarni o'z ichiga qamrab oladi. Ammo mazkur muammoni o'rgangan ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, sivilizatsiyaning boshlanishida ataylab jazolash umuman qo'llanilmagan. Ibtidoiy tuzum vaqtida bolaga yumshoq, yaxshi munosabatda bo'lingan. Eng og'ir jazo sifatida tarbiya beruvchilar tayoqni bir necha bor yerga urib, tahdid qilish bilan chek-langan. Bu esa bolaning xatti-harakatidan qattiq jahli chiqqanligini va kelgusida uni nima kutayotganligi haqida ogohlantirish deb tushunilgan.

Biroq maktab ijtimoiy institut sifatida rivojlanib borgan sari rag'bat va jazo birinchi o'ringa chiqa boshladi. Bundan tashqari, qadimgi Sharq sivilizatsiyasida jismoniy jazo o'quvchini kamsitish usuli sifatida emas, balki ta'lim-tarbiya berishning samarali didaktik vositasi sifatida qo'llanilgan.

Misrda o'rgatish va jismoniy jazo juda ko'p qo'llanilganligi tufayli bu ikki tushuncha "kaltaklanayotgan qo'l" sifatida bir xil ieroglif bilan ifodalangan. Aynan Misrda "Bolaning qulog'i uning orqasida, u faqat kaltaklanganda eshitadi", degan ibora paydo bo'lgan. Bu Misr pedagogikasining o'ziga xosligini bildirib, unda bolaga kattalarcha munosabatda bo'lingan va bolalikning o'ziga xos xususiyatlariga ataylab ko'z yumilgan. Pedagogik shafqatsizlik Sharqda oilaviy an'analarga asoslangan. Oilada ham jismoniy jazo ko'p qo'llanilgan [3. B. 10].

Rag'batlantirish esa, asosan, an'anaviy ma'qullash, maqtash hamda o'ziga xos istiqbolli rag'batlantirishdan iborat bo'lgan. Yozishni va o'qishni o'rgatish uchun amaldorlarning qiziqarli hayotini ifodalovchi matnlardan foydalanilgan bo'lib, bu bolalarga savod chiqarishda qiyinchilik tug'dirmagan. Raqobat usuli sifatida "bilim borasida do'stidan oldinlab ketish kerak" degan g'oya doimo bolalar onggiga singdirilgan.

Jamiyat rivojlanib borgan sari rag'bat eng samarali tarbiya usuli sifatida talqin qilina boshladi. Ellinistik davr (mil. av. III–I asr) Misr pedagogikasida jismoniy jazo umuman qo'llanilmasligi olg'a surildi. "Dononing qo'lida mufokot va tayoq birga tursa og'irlik qiladi" degan qarashlar paydo bo'ldi. Inson xulq-atvorining ichki, axloqiy motivlari yuqori o'ringa chiqa boshladi. Yozuvchilar "Xudo ahmoqni tarbiyalash uchun tayoqni tushirdi, aqlini tarbiyalash uchun esa uyaltirishni" deya baytlar yozishdi [3. B. 11].

Talmud davri (eramizning I–II asrlari) yahudiy maktablarida mukofot va jazolarning eng optimal choralari qo‘llanilgan. Maktabda yettita o‘rindiqlar bo‘lib, bolaning muvaffaqqiyatiga baho, uning o‘rindig‘i o‘qituvchiga qanchalik yaqin joylashishiga qarab belgilanar edi. O‘qituvchi tomonidan jismoniy jazo qo‘llanilganligi, agar u yaxshi bilim berayotgan bo‘lsagina kechirildi. Biroq III–V asrlarda jismoniy jazo tartibini cheklovchi batafsil ko‘rsatmalar ishlab chiqildi, jismoniy jazolashda haddan tashqari qattiqqo‘l bo‘lgan o‘qituvchilarga keskin choralar ko‘rildi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib rag‘batlantirishning iqtisodiy shakllari yaratila boshladi. Faxriy yorliqlar, maqtov yorliqlar, o‘g‘il bolalar va qizlar uchun maxsus medallar, oltin medallar, sinflararo 1-o‘rinlar, boshqalardan ajratib turuvchi ko‘krak nishonlari shular jumlasidandir. Jazolarning esa darsdan so‘ng kechki yuklamalar, sinfdan sinfga o‘tkazilmay qayta o‘qitish va so‘nggi chora sifatida makatabdan chetlatish kabi turlari qo‘llanilishi belgilab qo‘yildi.

Bugungi kunda faoliyat va xulq-atvorni rag‘batlantirish usullari deganda o‘quvchiga ta’sir qilishning samarali yo‘llari tushuniladi. Motivatsion soha o‘quvchilarning xatti-harakatlarini yaxshilashga, ularda ijobiy xulq-atvorni rivojlantirishga qaratiladi. Rag‘batlantirishning bevosita va bilvosita maqsadi muayyan faoliyatlarni tezlashtirish yoki salbiy xatti-harakatlarni oldini olish hisoblanadi.

O‘zbekiston pedagogika ensiklopediyasida rag‘batlantirish va jazolash metodlariga quyidagicha ta’rif berilgan: “Rag‘batlantirish metodi – o‘quvchi xulqini ijobiy baholash, uni ruhlantirishga asoslangan ta’lim-tarbiya metodi” [4. B. 122]. “Jazolash metodlari (arab. jazo – qasos; mukofot; sazo) – o‘quvchi shaxsiga ta’sir ko‘rsatish usuli. Ta’lim muassasasi va oilada bolalar xulqidagi salbiy odatlarning oldini olish hamda yo‘qotishga qaratilgan pedagogik metod” [5. B. 6].

Jazo – axloqiy me’yorlarni va muayyan qonunchilik talablarini buzgan o‘quvchilarning xatti-harakatlarini to‘g‘rilash, o‘z vazifalarini vijdonan bajarishga majburlash uchun ularga ta’sir qilish vositalari va usullar tizimi. Rag‘batlantirish – bu bolaning rivojlanishini rag‘batlantiradigan usul. Amalda rag‘batlantirish jazodan ko‘ra kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Rag‘batlantirish ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, o‘zini o‘zi qadrlash, intizom, mas’uliyat va boshqalarni shakllantirishga yordam beradi [6. B. 1407].

A.E.Sheglovaning fikriga ko‘ra “jazo huquqbuzarlik sodir etgan o‘quvchi yoki bolalar guruhiga ta’sir qilish chorasidir. Undagi jazolash elementlarining asosiy maqsadi tarbiyaviydir. Bolaga bunday ta’sir qilish ijtimoiy xulq-atvor me’yorlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarning qoralanishini ifodalaydi hamda ularni bunga qat’iy rioya qilishga majbur qiladi” [7. B. 235–236].

Rag‘batlantirishni esa A.E.Sheglova ma’qullash, maqtash, ishonch izhori va o‘quvchining ijobiy his-tuyg‘ularini rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan pedagogik ta’sir deb hisoblaydi. Shuningdek, uning ta’kidlashicha, rag‘batlantirish metod sifatida “tarbiyachilar (ota-onalar, o‘qituvchilar va boshqalar) tomonidan xatti-harakatlarga ijobiy baho beradigan pedagogik ta’sir o‘lchovi” – sifatida qaralib, o‘quvchilarning keyingi muvaffaqiyatlarga erishishi uchun qo‘llaniladi. Uning rag‘batlantiruvchi roli bolaning tanlagan va amalga oshiradigan harakat yo‘nalishini jamoatchilik tomonidan tan olinishi bilan belgilanadi [7. B. 236].


Mukofot va jazo qutbli usullar bo‘lib, L.Yu.Gordin rag‘batlantirish, ma’qullash elementlarini, jazo esa qoralashni o‘z ichiga oladi deb hisoblaydi. Muallifning ta’kidlashicha, ushbu ta’lim vositalarining mohiyatini faqat o‘quvchilarning xatti-harakatlarini axloqiy baholash bilan bog‘lab bo‘lmaydi, balki ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini ham inobatga olish kerak, deb hisoblaydi [8. B. 28].

XIX–XX asr rus olimlarining mazkur muammo yuzasidan o‘rganilayotgan kategoriyalarning mazmuni ta’lim usullarini o‘quv jarayonida qo‘llashning maqsadga muvofiqligi mohiyatini aniqlashga oid fikrlariga tayanib, o‘quvchilarning adekvat xulq-atvorini rag‘batlantirish, uni tartibga solish usullari sifatida rag‘bat va jazoning xususiyatlari o‘rganildi.

V.G.Belinskiy ko‘p asarlarida ta’limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish muhim ekanligini va o‘quv jarayonida insonparvarlik yondashuvlarni ko‘rsatib o‘tgan. Olim umumbashariy ta’lim g‘oyalarini ilgari surar ekan, “Boshlang‘ich ta’lim bolada amaldor ham, shoir ham, hunarmand ham emas, balki kelajakda shaxs bo‘lishdan to‘xtamagan holda inson bo‘la oladigan shaxsni ko‘rishi kerak” – degan fikrlarni aytib o‘tadi [9. B. 41].

Mazkur muammo yuzasidan N.I.Pirogov “Bolani kaltaklash kerakmi?” maqolasida jismoniy jazoni tubdan qoralagan hamda ta’lim muassasalarida tayoqlardan foydalanish pedagogikaga mutlaqo zid ekanligini, bolalarda kamsitilish hissining paydo bo‘lishiga olib kelishini asoslab bergan. U o‘z tadqiqotlarida “ichki jazo” tushunchasini ishlab chiqdi va “tashqi jazo”ning oldini olish go‘yasini “shaxsdagi shaxsni” tarbiyalashning muhim shartlari sifatida baholadi [10. B. 104].

R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizovlar tomonidan ishlab chiqilgan “Umumiy pedagogika” nomli darslikda rag‘batlantirish va jazolash metodlari quyidagicha turlarga bo‘lingan.



1-rasm. *Rag‘batlantirish va jazolash turlari [11. B. 258].*

O‘quvchilarni rag‘batlantirish ularda o‘zlashtirishda motivatsiyani oshirish imkoniyatini o‘z ichiga oladigan jarayonlardan iborat. Bu ta’lim muhitini rivojlantirish, o‘quvchilarga maqsad sari intilishni o‘rgatish va ularni qiziqtirish orqali amalga oshiriladi. Quyidagilar o‘quvchilarni rag‘batlantirishni amalga oshirishda didaktik tamoyil sanaladi:

Maqsadlarni aniqlashtirish: o‘quvchilarga maqsadlar qo‘yishni o‘rgatish va ularga erishish uchun to‘g‘ri reja tuza olish ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir. Ular o‘quvchilar uchun amaliy, mazmunli va ijobiy bo‘lishi kerak. O‘quvchilar bilan o‘quv jarayoni maqsadlarini birgalikda sharhlash, ularning nima o‘rganmoqchi ekanligi va o‘rganish jarayonidagi roli haqida gaplashish lozim.

O‘quvchilar bilan muloqotda bo‘lish: O‘quvchilar bilan fikr almashish, muloqot o‘tkazish ularning o‘zligini ma’lum qilishga turtki bo‘ladi va o‘qituvchidan qanday yordam kutishi mumkin ekanligini namoyon etadi. Ular bilan insoniy munosabatda bo‘lish, fikrlarini e’tibor bilan tinglash, qiziqarli savollar bilan muloqotga jalb etish kerak.

O‘quvchilarni qiziqtira olish: Ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar bilan tashkil etish darslarni qiziqarli bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Fizikaviy ko‘rsatkichlar, illustratsiyalar, interfaol o‘yinlar, ilova va onlayn resurslardan foydalanish. Virtual ekskursiyalar, onlayn laboratoriyalar va interaktiv darsliklar orqali o‘quvchilarni qiziqtirish ularning bilim doirasini kengaytiradi.

Ma’naviy qo‘llab-quvvatlash: O‘quvchilarning ma’naviy va jismoniy rag‘batlantirishni oshirish uchun faoliyatlar tashkil etish muhimdir. Bu ularni o‘zlarining fikrlarini erkin ifodalash, jamoa bilan birgalikda hamkorlikda ishlash va umumiy tadbirlarda ishtirok etishlari bilan amalga oshiriladi. Ma’naviy qo‘llash, jamoada qatnashish orqali o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

O‘quvchilar orasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish: Guruh mashg‘ulotlari, jamoaviy darslar va ilg‘or hamkorlik mashg‘ulotlari o‘quvchilar o‘rtasida aloqani kuchaytiradi va o‘quv faoliyatini amalga oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kuchli strategiyalar qo‘llash: Ta’limda o‘quvchilarga o‘z-o‘zini nazorat qilish va uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun ishbilarmon bo‘lishga yordam bera oladigan strategiyalar qo‘llash muhimdir. Darslarni ishbilarmon va jozibali uslubda o‘tkazish, kreativ va interaktiv dars usullaridan foydalanish zarur. Masalan, o‘yinlar, dars jarayonida vaqt va resurslarni oqilona boshqarish, amaliyotlar, o‘quv materiallari va o‘quvchilar bilan muloqot jarayonida ularni adolatli boshqarish kuchli strategiyalar shular jumlasidan.

Tanqidiy yondashuv: O‘quvchilarni rivojlantirish uchun ularning nomukammal, xato faoliyatiga tanqidiy yondasha olish va maslahatlar berish. Ularning og‘zaki va yozma ishlarini tanqidiy baholash.

Amaliyotni yo‘lga qo‘yish: Nazariy ma’lumotlardan tashqari, o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish. Dars, mashg‘ulot va loyihalar orqali nazariyani amaliyotga o‘tkazish.

Ushbu tadqiqot ishini olib borish davomida ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni rag‘batlantirishning amaliyotdagi holatini o‘rganish, interfaol rag‘batlantirish usullaridan foydalanish darajasini aniqlash maqsadida tadqiqot obyektlari sifatida Toshkent, Farg‘ona va Andijon viloyatlarining umumta’lim maktablari tanlab olindi. Tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda olib borildi.

Tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (2023-yil may – 2023-yil dekabr). Bu bosqichda tadqiqotchilik instrumentlarini tayyorlash vazifasi qo‘yildi, uning natijasida umumta’lim maktablarida an’anaviy va interfaol rag‘batlantirish usullarini qay darajada qo‘llani-

lishini o‘rganish maqsadida o‘qituvchilar uchun so‘rovnomalar ishlab chiqildi. Bu bosqichda Toshkent viloyati Mirzo Ulug‘bek tumani 35-umumta’lim maktabi, Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahar 10-umumta’lim maktabi, Andijon viloyati Andijon shahar 35-DIM, Oltinko‘l tumani 47-umumta’lim maktablariga tashrif buyurish, maktab rahbariyati, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda o‘quvchilari bilan suhbat o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

Qayd qiluvchi bosqichning maqsadi (2023-yil sentabr) o‘quvchilarni interfaol usulda rag‘batlantirishning real holatini bilish, shuningdek, o‘quvchilarni interfaol usulda rag‘batlantirish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlashdan iborat bo‘ldi. Bu bosqichda quyidagi vazifalar qo‘yildi:

1) anketa, test va suhbat o‘tkazish;

2) olingan ma’lumotlar asosida o‘quvchilarni interfaol usulda rag‘batlantirishning real holatini tashxislash;

3) interfaol usulda rag‘batlantirish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash;

4) nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirish.

Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani 35-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining 21 nafari, Farg‘ona shahar 10-umumta’lim maktabining 18 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, Andijon shahar 35-davlat ixtisoslashtirilgan maktabining 15 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ishtirokida so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Olingan so‘rovnoma natijalari aniqlanib, diagrammalarda ifodalab berildi. Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani 35-umumta’lim maktabi o‘qituvchilaridan olingan so‘rovnoma natijalari (2-rasm), Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahar 10-umumta’lim maktabi boshlanglich sinf o‘qituvchilaridan olingan so‘rovnoma natijalari (3-rasm), Andijon viloyati Andijon shahar 35-davlat ixtisoslashtirilgan maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan olingan so‘rovnoma natijalari (4-rasm)larda ko‘rsatilgan.

So‘rovnoma uchun quyidagi savollar tanlab olindi:

1. Rag‘batlantirishni qanchon va qancha muddatda amalga oshirish kerak?

A) har kuni;

B) faqat chorak yakunida;

C) o‘quv yili so‘nggida.

2. Rag‘batlantirish metodining qaysi turlaridan foydalanasiz?

A) maqtash, ishonch bildirish, ota-onasiga tashakkurnoma xati yuborish, faxriy yorliq, maqtov yorliqlari bilan taqdirlash;

B) esdalik sovg‘asi berish, stipendiya berish, televideniyada ko‘rsatuv uyushtirish;

C) rangli kartochkalar orqali, pul birliklari bilan, Kamalak metodi, o‘lchov birliklari orqali, smayliklar orqali, Mazaika metodi orqali, Oltin baliq, Namunaviy uy, Evrika metodi.

3. Interfaol metodlariga qaysi ta’rif mos keladi?

A) ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida faollikni oshirish orqali bilimlarni o‘zlashtirishni kafolatlovchi metodlar;

B) maqtash, ishonch bildirish, ota-onasiga tashakkurnoma xati yuborish, faxriy yorliq, maqtov yorliqlari bilan taqdirlash;

C) esdalik sovg‘asi berish, stipendiya berish, televideniyada ko‘rsatuv uyushtirish;


C) rangli kartochkalar orqali, Pul birliklari bilan, Kamalak metodi, O‘lchov birliklari orqali, Smayliklar orqali, Mazaika metodi orqali, Oltin baliq, Namunaviy uy, Evrika metodi.

3. Interfaol metodlariga qaysi ta’rif mos keladi?


A) ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida faollikni oshirish orqali bilimlarni o‘zlashtirishni kafolatlovchi metodlar;

B) harakat, ta’sirchanlik, o‘qituvchi va o‘quvchi suhbatida namoyon bo‘ladigan, ularni o‘zaro hamkorlikda ishlashga undovchi metodlar;


C) ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining o‘zaro faoliyatini ta’minlovchi, ularni faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi hamda bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yo‘naltirilgan metodlar.



2-rasm.



3-rasm.



4-rasm.

Olingan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, hozirda umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida rag‘batlantirish har kuni amalga oshirilib, o‘rtacha 61% ni, ko‘rsatdi. O‘qituvchilar tomonidan asosan rag‘batlantirishning an’anaviy turlari; maqtash, ishonch bildirish, ota-onasiga tashakkurnoma xati yuborish, faxriy yorliq, maqtov yorliqlari bilan taqdirlash kabi turlaridan foydalanilanish ko‘rsatkichi esa o‘rtacha 70%, interfaol usuldagi rag‘batlantirishlardan foydalanish ko‘rsatkichi 21% ekanligi aniqlandi. Shuningdek, o‘qituvchilarda interfaol metodlar haqidagi bilimlari o‘rtacha 71% bo‘lsa-da, mazkur metodlarni rag‘batlantirish metodlari bilan o‘zaro integratsiya qilib, o‘quv jarayonlarida qo‘llanilmayotganligi aniqlandi.

Olingan nazariy ma’lumotlar va tahlillarga asoslanib, rag‘batlantirish va jazolash metodlarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ta’minlovchi, o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi, ularning tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi hamda intellektual salohiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi interfaol usullarini yaratish va amaliyotga joriy etish zarurligini ta’kidlash mumkin.

Interaktiv rag‘batlantirish usullari ko‘rgazmali qurollar, amaliy mashg‘ulotlar, integratsion texnologiyalar va hamkorlikdagi loyihalar asosida tashkil etilib, o‘quvchilarni o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishlarini, turli imtiyozlarga ega bo‘lish orqali o‘zlariga bo‘lgan ishonch ortishini ta’minlaydi. Bu turdagi rag‘bat usullari o‘quvchilarga turli xil tushunchalar va ularning haqiqiy dasturlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashda yordam beradi. Akademik tarkibni o‘quvchilar hayoti va tajribalar bilan bog‘lash orqali ma’lumotni eslab qolish, amalda qo‘llash ehtimolini oshiradi, o‘quv jarayonini yanada mazmunli qiladi, o‘z-o‘zini baholash, nazorat qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda intellektual salohiyatlarini rivojlantiradi.

“Rag‘batlantirish” va “intellektual salohiyat” tushunchalarining bog‘liqligi ularni amaliyotda qo‘llash davomida o‘zaro to‘qnashuv davrida bir-biriga qanday ta’sir etishini ko‘rish mumkin.

Rag‘batlantirish o‘zbek tilida “rivojlanish” yoki “oldinga yurish” ma’nolarini ham anglatadi. Bu so‘zga boshqa til madaniyatlarida ham turli ma’nolar berilgan. Agar bu so‘zni “rivojlanish” yoki “taraqqiyot” deb tushunilsa, intellektual salohiyatni yuqori darajada rivojlanishiga yordam beradi. Intellektual salohiyat esa “intellekt” (aql, fikr) va “salohiyat” (samarali bo‘lish, malakali bo‘lish) – o‘quvchilarning tushunish, o‘rganish, muhokama qilish, yaratish, yodda saqlash

va boshqa faoliyatlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarini anglatadi.

Quyidagi interfaol usuldagi rag‘batlantirish metodlari o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiribgina qolmay, ularning miqdorlar, bir o‘lchov birligidan ikkinchi o‘lchov birligiga o‘tish haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi hamda ularning intellektual salohiyatlarini rivojlantirish, fanlararo integratsiyani tashkil etish, o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

“O‘lchov birliklari” orqali rag‘batlantirish [12. B. 124–125].

Bunda o‘quvchilar o‘z-o‘zini baholaydi. Buning uchun dastlab o‘quvchilarning darsga kelganligi, ya’ni davomati uchun 3 o‘lchov birligi yozilgan kartochka beriladi. So‘ng dars davomidagi faolligi va darsga qatnashishiga qarab o‘qituvchi 3, 4, 5 raqamlari o‘lchov birliklari yozilgan kartochkalar tarqatadi. Dars so‘nggida o‘quvchilar o‘zi to‘plagan ballarni o‘lchov birliklarining turli kattaliklarida ifodalab beradi. Eng ko‘p o‘lchovga ega bo‘lgan o‘quvchilar turli nominatsiyalarda mukofotlanadi. Bunday rag‘bat kartochkalarini murakkablashtirmaslik uchun uzunlik, og‘irlik va vaqt o‘lchovi birliklaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

1–2-sinflar uchun mazkur metodning soddaroq variantidan foydalanish mumkin. 5 baho: 5 sm, 4 baho: 4 sm, 3 baho: 3 sm va hk. kabi belgilansa, dars so‘nggida o‘quvchilar o‘zlari to‘plagan ballarini kattaroq o‘lchovi birliklari, masalan, detsimetrlarda ifodalaydi.

Masalan: 45 sm = 4 dm, 5 sm 16 sm= 1dm, 6 sm 29 sm=2 dm, 9 sm.

3–4-sinflar uchun kattaroq o‘lchov birliklaridan foydalanish mumkin.

Masalan: 3500gr = 3 kg, 500 gr 65q = 6q, 500 kg = 6500 kg.

Bu metodning afzalligi shundaki, o‘quvchilar dars davomidagi faolliklari uchun ma’lum bir kartochkalar orqali rag‘batlantirilibgina qolmay, ularning uzunlik, og‘irlik hamda vaqt o‘lchov birliklari to‘g‘risidagi bilimlari mustahkamlanadi. O‘zlashtirishi pastroq bo‘lgan o‘quvchilar ham darsga nisbatan qiziqishi ortib, o‘z potensialiga qaraganda ancha yuqori natijalarni qayd etadi. Bu metodni matematika darslaridan tashqari boshqa darslarga tadbiq etish ham maqsadga muvofiq. Chunki o‘quvchi biroz o‘zlashtirishi qiyinroq bo‘lgan o‘lchov birliklari mavzusini har doim yodda saqlab boradi.

Xulosa

Interfaol rag‘batlantirish usullari dinamik o‘quv muhitiga ijobiy hissa qo‘shadi, o‘quvchilar orasida hayajon va qiziqish hissini uyg‘otadi. Ijobiy muhitni kognitiv faoliyatga va umumiy o‘quv tajribasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Motivatsiya, tanqidiy fikrlash, faol o‘rganish umumiy kognitiv rivojlanishda ko‘p qirrali rol o‘ynaydi. Ushbu usullarni o‘z ichiga olgan holda o‘qituvchi-pedagoglar o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli va samarali o‘quv jarayonini tashkil etishi mumkin. Rag‘batlantirish usuli ta’lim samaradorligida muhim ahamiyat kasb etib, o‘quvchilarning motivatsiyasi va umumiy bilim natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Rag‘bat va intellektual salohiyat orasidagi bog‘liqlikni tushunish uchun rag‘batlantirishni intellektual salohiyatni rivojlantiruvchi vosita sifatida qarash mumkin. Ya’ni o‘quvchi intellektual salohiyatini oshirish uchun o‘zini ustida ishlashi ta’minlanadi.

2. O‘quvchilarning yangi bilim va malakalarni egallashi, boshqalar bilan o‘zaro fikr almashishida interfaol rag‘batlarning motivatsion omil bo‘lib xizmat qilishini ta’minlaydi.

3. O‘quvchilar o‘quv jarayonida faol ishtirok etganda hodisa, narsa va ma’lumotlarni eslab qolish va yangi sharoitlarda qo‘llay olish ehtimoli oshadi.

4. Hududlardagi olingan tahliliy natijalarga asoslanib, o‘quv jarayonida tarbiyaviy-intellektual rag‘bat usullarini muntazam qo‘llab borish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

5. Interfaol rag‘bat usullaridan foydalangan holda fanlararo integratsiyani ta’minlash mumkin.

Rag‘batlantirish va jazolash metodlarining zamonaviy interfaol usullaridan o‘quv jarayonida foydalanish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ta’minlaydi, o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi, ularning tarbiyasi hamda intellektual salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarda zamonaviy ta’lim metodlarining ajralmas qismi bo‘lgan mustaqil ta’lim olishdagi dastlabki ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/ru/docs/-5085999 (Murojaat etilgan sana: 15.12.2023)

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 30.09.2019 yildagi 823-son qarori. 26-band. [Internet manba]. URL: https://lex.uz/docs/-4532496 (Murojaat etilgan sana: 10.01.2024)

3. *Щедрин Д.С*. Методы поощрения и наказания. Саратов: – 2023. 54 с. //Официальный сайт ГБПОУ СОУОР [Электронный ресурс]: [сайт]. URL: https://souor.siteedu.ru/media/sub/1814/files/pooschrenie-i-nakazanie1411.pdf. (Дата обращения: 05.01.2024)

4. Pedagogika ensiklopediya. III jild. N-H. /Muharrir: R.Safarova. Tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 421 b.

5. Pedagogika ensiklopediya. II jild. J-M. / Tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

6. Российская педагогическая энциклопедия: В двух томах. Т. 2. М-Я. / Гл. ред. В.В. Давыдов. – Москва: Научное Издательство “Большая Российская Энциклопедия”, 1999. – 1617 с.

7. *Щеглова А.Е*. Сущность методов поощрения и наказания в истории педагогической мысли. / Педагогика: Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И.Герцена, 2009. –№ 113. – С. 233–238. [Электронный ресурс]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-metodov-pooschreniya-i-nakazaniya-v-istorii-pedagogicheskoy-mysli/viewer (Дата обращения: 15.01.2024)

8. *Гордин Л.Ю*. Пощрения и наказания в воспитании детей. – Москва: Педагогика, 1971. – 200 с.

9. *Чечет В. В., Чечет В.Вик.* Педагогика в афоризмах и изречениях. – Минск: Репозитори БГПУ, 2013. – 111 с.

10. *Пирогов Н.И*. Нужно ли сечь детей, и сечь в присутсвии других детей? / *Избранные* педагогические сочинения. – Москва: Педагогика, 1985. – С. 102–106.

11. *Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H.,* Matnazarova K.O., Shirinov M., Hafizov S. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 526 b.

12. *Axmedova D.X.* O‘quvchilarni interfaol usulda rag‘batlantirish orqali tarbiyalash va intellektini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari (boshlang‘ich sinflar misolida) // Jamiyat va innovatsiyalar, 2023. – № 9. – B. 122–127. DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss9/S-pp121-127. [Internet manba]. URL: https://inscience.uz/index.php/ socinov/index (Murojaat etilgan sana: 13.01.2024)

CURRENT STATUS AND ANALYSIS OF EDUCATING STUDENTS AND INCREASING THEIR INTELLECTUAL POTENTIAL THROUGH STIMULATION

D.X. Akhmedova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2024. 2 (78). 59-68.

[1]Andijan state pedagogical institute, Andijan, 170340, str. Dostlik, 4 (Uzbekistan). E-mail:adpi@edu.uz

Key words: reward, punishment, behavior, upbringing, education, motive, method, interactive method, technology, primary school.

It is known to everyone that in the new Uzbekistan, conducting educational work based on modern requirements and using new pedagogical technologies has become the primary task of pedagogues of general education schools. How strong the motivation to learn among students is, along with the proper organization of education, lessons are conducted by qualified specialists, and the perfect educational conditions. It is directly related to how one’s achievements are encouraged.

Reward and punishment are very common educational methods in the history of pedagogy. Incentives and punishments in the educational process help to increase the efficiency and quality of education, ensure the formation of moral values, responsibility and self-management skills of a person. The effectiveness of all pedagogical effects depends on the correct application of rewards and punishments from a methodological point of view, which requires high pedagogical skills from educators.

Encouraging students consists of processes that include the opportunity to increase motivation and mastery in their learning and mastering. This is done

by improving the learning environment, setting goals for students and keeping them interested.

In the course of conducting this research, general education schools of Tashkent, Fergana and Andijan regions were selected as research objects in order to study the practical situation of student motivation in the educational process. Experimental work was carried out in the following stages.

1. Organizational preparation stage.

2. A milestone.

21 primary school teachers of the 35th general education school of Mirzo Ulugbek district of Tashkent city, 18 primary school teachers of the 10th general school of Fergana city, 35th state specialized school of Andijan city Questionnaires were conducted with the participation of 15 primary school teachers.

According to the results of the received survey, now the stimulation is carried out every day in primary classes of general education schools, and it showed an average of 61%. Traditional types of encouragement by teachers; It was found that the rate of using such types as praise, expressing confidence, sending a letter of thanks to parents, and awarding with a certificate of honor is 70% on average, and the rate of using incentives in an interactive way is 21%. Also, it was found that although teachers' knowledge of interactive methods is on average 71%, these methods are not integrated with motivational methods and are not applied to educational processes.

Methods of encouragement and punishment on the basis of modern pedagogical technologies, which ensure mutual cooperation between teachers and students, strengthen students' internal motivation to learn, have a positive effect on their education and intellectual potential it is necessary to create and put into practice new interactive methods that serve the development.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6108 of November 6, 2020 «On measures to develop the fields of education and science in the new development period of Uzbekistan]. [Online] URL: https://lex.uz/ru/docs/-5085999 (Date of access: 15.12.2023)

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining"Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 30.09.2019 yildagi 823-son qarori 26-band. [Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 823 of 09/30/2019 "On improving the procedure for financial incentives for exemplary employees of general secondary education institutions" paragraph 26]. [Online] URL: https://lex.uz/docs/-4532496 (Date of access: 10.01.2024)

3. Shchedrin, D.S. (2023) Metody pooshchreniya i nakazaniya [Methods of reward and punishment]. Saratov. [Online] URL: https://souor.siteedu.ru/media/ sub/1814/files/pooschrenie-i-nakazanie1411.pdf. (Data obrashcheniya: 05.01.2024)

4. Safarova, R. (ed.) (2017) *Pedagogika ensiklopediya* [Pedagogy encyclopedia]. Vol. 3. Tashkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

5. Safarova, R. (ed.) (2015) *Pedagogika ensiklopediya* [Pedagogy encyclopedia]. Vol. 2. Tashkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

6. Davydov V.V. (ed.) (1999) *Roccijckaya pedagogicheckaya enciklopediya* [Russian Pedagogical Encyclopedia]. In 2 volumes. Vol. Moscow: Nauchnoe Izdatel'ctvo "Bol'shaya Roccijckaya Enciklopediya".

7. Shcheglova, A.E. (2009) Cushchnoct' metodov pooshchreniya i nakazaniya v ictorii pedagogicheckoj mycli [The essence of methods of reward and punishment in the history of pedagogical thought]. *Pedagogika: Izvectiya Roccijckogo gocudarctvennogo pedagogicheckogo univerciteta im. A.I.Gercena*. No 113. Pp. 233-238. [Online] URL: https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-metodov-pooschreniya-i-nakazaniya-v-istorii-pedagogicheskoy-mysli/viewer (date of access: 15.01.2024)

8. Gordin, L.Yu. (1971) *Poshchreniya i nakazaniya v vocpitanii detej* [Rewards and punishments in parenting]. Moscow: Pedagogika.

9. Chechet V.V., Chechet, V.Vik. (2013) *Pedagogika v aforizmah i izrecheniyah* [Pedagogy in aphorisms and sayings]. Minsk: Repozitori BGPU.

10. Pirogov, N.I. (1985) Nuzhno li cech' detej, i cech' v pricutcvii drugih detej? [Is it necessary to flog children, and flog them in the presence of other children?]. In: Izbrannye pedagogicheskie sochineniya [Selected pedagogical writings]. Moscow: Pedagogika. Pp. 102-106.

11. Mavlonova, R.A., Rahmonqulova, N.H. (et.al.) (2018) *Umumiy pedagogika* [General pedagogy]. Tashkent: Fan va texnologiya.

12. Axmedova, D.X. (2023) O‘quvchilarni interfaol usulda rag‘batlantirish orqali tarbiyalash va intellektini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari (boshlang‘ich sinflar misolida) [Pedagogical possibilities of education and intellectual development of students by encouraging them in an interactive way (in the example of primary classes)]. *Jamiyat va innovatsiyalar*. Vol 4. Issue 9. Pp.121-127. DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss9/S-pp121-127.: https://inscience.uz/ index.php/socinov/index (Date of access: 12.01.2024)

Muallif haqida ma’lumot:

AXMEDOVA Dilnoza Xabibullo qizi – Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va pedagogik ta’limotlar tarixi yo‘nalishi 2-bosqich tayanch doktoktoranti. E-mail: dilnozaaxmedova933@gmail.com